

EHTIYOJI MILLAT: TURKISTONLIKLAR NIMAGA MUHTOJ?

Bo'riqulov Abdulloh

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi islomshunoslik fakulteti

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: F.Maxmasobirova

Islom tarixi va manbashunosligi–

IRCICA kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston jadidlari otasi deya e'tirof etilgan Mahmudxo'ja Behbudiy qalamiga mansub "Ehtiyoji millat" maqolasi atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, tahlil davomida maqolada ko'tarilgan muammolarning bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, Ovrupa, Turkiston, millat, zamonaviy ilm, diniy ilm, maktablar, to'y.

Jahon xalqlarining rivojlanish taraqqiyotiga qaralsa, ko'ramizki o'sha xalqlarda avvaliga ilm ma'rifatga bo'lgan ehtiyoj kuchli bo'lgan. Aynan ilm va bilimga bo'lgan intilish ularning jamiyatini yuksaltirib, taraqqiyot sari yetaklagan. Shu sababli ham ma'rifatparvar ziyolilar har doim xalqni ilm olishga, savodli bo'lishga chorlab kelganlar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy ham o'zining "Ehtiyoji millat" maqolasida millat ravnaqi uchun eng zarur omil sifatida ilm-ma'rifatni ko'rsatadi. U xalqning taraqqiy etishi, jaholatdan qutulishi va kelajakda rivojlangan jamiyatga aylanishi uchun ta'lim va tarbiya muhim ekanligini ta'kidlaydi. "Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilmurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur" deb Behbudiyning o'zi ham boshqa millatlar haqida so'z yuritadi, shuningdek, ularni turkiston xalqlariga ibrat sifatida ko'rsatadi. Maktablardagi o'qitish tizimini tanqid qila turib, "maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar o'qilur" deya, Turkiston maktablarida nafaqat diniy ta'lim, balki dunyoviy ilm bo'lgan kimyo, biologiya, fizika kabi aniq va tabiiy fanlar o'qitilishi muhimligini aytib o'tadi.

Haqiqatan ham, bugungi hayotimizda ham jamiyatda o'z o'rnimizni topish uchun, yurtimiz taraqqiyotiga xissa qo'shish uchun, Behbudiy tili bilan aytganda, dunyoda turmoq uchun dunyoviy fanlarni o'qishimiz muhimdir.

Mustamlaka iskanjada turib bo'lsada, millat bolalarini o'qitib, o'zligini tanitib, ma'rifat vositasi-la ozodlikka erishish g'oyasi targ'ib etish aynan shu maqola orqali

yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu jihatdan Behbudiy o‘z maqolasida qonunlarini o‘rganish o‘ta muhimligini aytib o‘tadi. Biz buni maqoladagi “zamon o‘zgarib boshqa millatlar ila maxlut bo‘lduk, shari‘at va o‘z ustimiz ustiga qonun va Ovrupo odatiga itoat qilmoqqa majburmiz. ... Zamoni sobiqda faqat shari‘at bilmoq kifoya etardi. Endi qonun va zakunni bilmoq ham lozimdir” deya aytilgan jumladan bilishimiz mumkin. Behbudiy Turkiston aholisining chor hukumati chiqargan qonunlardan bexabar ekanligidan, shu tufayli hoh boy qatlam bo‘lsin, hoh qozi va hukamo bo‘lsin barchasi bir xil zarar ko‘rayotganidan tashvishlanadi. Shu sababli yoshlarni huquq fani o‘qitiladigan Rossiya universitetlariga o‘qishga kirishga targ‘ib qiladi. Bu dorilfununlarda o‘qib kelgan yosh huquqshunoslarni davlat idoralariga ishga kirishi, bu orqali esa o‘z millati va davlati foydasiga so‘zlashini ko‘rsatib o‘tadi. Endi o‘ylab ko‘raylik, Behbudiy ko‘targan bu masala bugungi kunimizda ham juda muhim ahamiyatga ega. Sababi, hozir ham xalqimiz bugungi kunda chiqarilgan qonun va qarorlarni bilmas va o‘rganmas ekan, bundan bir asrgi ajdodlarimiz duch kelgan muammolarga duch kelishi tabiiy albatta.

Behbudiy nafaqat yuqoridagi muammolarga, balki, jamiyat hayotida o‘ta muhim bo‘lgan shifokorlik, politsiya xodimlari, muhandislik, hisobchilik, tijorat ishlariga ham ahamiyat berib o‘tgan. Bularning har biriga alohida to‘xtalib o‘tib, bu ishlardagi asosiy muammolarni sanab o‘tadi. Shu bilan birga, Turkiston hududida faoliyat yuritib turgan hunarmandlarni soni yildan yilga qisqarib ketayotganini aytadi, “30 sana muqaddam Samarqandni Yomini mahaldasinda 300 alochabof ishchi bor edi. Al-on 30 nafar yo‘q. 10 sana so‘ngra tamoman mahv bo‘lur” deya ta‘kidlaydi. Bundan ko‘rinib turibiki, Behbudiy muhandislarning yo‘qligini hunarmandlarning dastgohlarini takomillashtirishga to‘siq qilib ko‘rsatadi.

Behbudiy o‘sha zamonning illatlarini gapirib o‘tar ekan, asosiy masalani yana ilmsizlikka, aholi orasida ilm olish targ‘iboti juda pastligiga taqaydi. Aksincha, “boshqa millatlarni boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soladurlar, faqir va yetimlarni o‘qumog‘i uchun vaqf "istipendiya"lar ta‘yin qilur” deb, boshqa millatlarning millionerlari ijobiy tarafini aytib, bizning boylarimizni faqat to‘y-hashamga, turli ulovlar-u otlarga bor e‘tiborlarini qaratganini, hatto o‘z o‘g‘illarini o‘qitmasliklarini ming afsuslar bilan keltirib o‘tadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy bu maqolasida turkiston xalqlarini keying hayoti qanday kechishini o‘ylagan holda, ularni ma‘rifatga chorlaydi. “Ehtiyoji millat” maqolasi millat taraqqiyoti uchun ilm-ma‘rifat, ijtimoiy faollik va iqtisodiy imkoniyatlarni to‘g‘ri yo‘naltirish zarurligini ilmiy asosda bayon qilgan muhim ma‘rifiy-publitsistik asardir. U jadidchilik g‘oyalarining asosiy tamoyillarini ifodalab, jamiyatni uyg‘onishga va taraqqiyotga chorlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maxmudxo ‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 3-nashr. Toshkent, “Manaviyat” 2006.
2. <https://oyina.uz/uz>

